

OKSIDATIV STRESS SHAROITIDA KALAMUSH YURAK MITOXONDRIYASI YUQORI O‘TKAZUVCHAN PORASIGA AYRIM IZOXINOLIN ALKALOIDLARINING TA’SIRI

Muxamedieva Irodaxon Baxtiyor xo‘ja qizi¹

Djumayeva Malika Sodiq qizi²

Isroiljonov Saminjon¹

Jurakulov Sherzod Niyatkabulovich³

Pozilov Ma‘murjon Komiljonovich²

¹Farg‘ona davlat universiteti, CAMU

²Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

³O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘simlik moddalari kimyosi instituti

Annotatsiya: Hujayradagi erkin radikallar darajasi murakkab antioksidant mudofaa tizimlari tomonidan nazorat qilinadi. Oksidativ stress sharoitida mitoxondriya membranasining LPO natijasida uning o‘tkazuvchanlik xususiyati ham o‘zgarishi mumkin. Bunda, mitoxondriyaning bo‘kish jarayoni kuzatiladi va bu megakanal (mPTP) o‘tkazuvchanligining keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holatda mitoxondriya bo‘kishini amalga oshishi tajribalarda ham o‘z tasdig‘ini topdi. OS bilan bog‘liq mitoxondriya bo‘kishini turli biofaol moddalar bilan ingibirlash mumkin. Turli patologik sharoitlarda mitoxondriya bo‘kishini ingibirlovchi o‘simlik moddalari bo‘yicha ma‘lumotlar uchraydi. Ammo, izoxinolin alkaloidlarini yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga ta’siri bo‘yicha ma‘lumotlar uchramaganligi sababli quyidagi tajribalar olib borildi.

Абстрактный: Уровень свободных радикалов в клетке контролируется сложными системами антиоксидантной защиты. В результате ПОЛ митохондриальной мембраны в условиях окислительного стресса может изменяться и ее проницаемость. При этом наблюдается процесс коллапса митохондрий, что вызывает резкое увеличение проницаемости мегаканала (mPTP). При этом реализация митохондриальной супрессии также была подтверждена в экспериментах. Митохондриальную дисфункцию, связанную с ОС, можно ингибировать различными биологически активными агентами. Имеются данные о растительных веществах, ингибирующих митохондриальную дисфункцию при различных патологических состояниях. Однако из-за отсутствия данных о влиянии изохинолиновых алкалоидов на митохондрии сердца были проведены следующие эксперименты.

Abstract: The level of free radicals in the cell is controlled by complex antioxidant defense systems. As a result of LPO of the mitochondrial membrane under conditions of oxidative stress, its permeability can also change. In this case, the process of mitochondria collapse is observed, which causes a sharp increase in the permeability of the megachannel (mPTP). In this case, the realization of mitochondrial suppression was also confirmed in experiments. OS-related mitochondrial dysfunction can be inhibited by various bioactive agents. There are data on plant substances inhibiting mitochondrial dysfunction in various pathological conditions. However, due to the lack of data on the effect of isoquinoline alkaloids on heart mitochondria, the following experiments were conducted.

Kalit so‘zlar: Oqsil, mitoxondriya, ichki membrana, biologik faol birikmalar, alkaloidlar, yurak mitoxondriyasi, PbCl.

Ключевые слова: Белок, митохондрии, внутренняя мембрана, биологически активные соединения, алкалоиды, митохондрии сердца, PbCl.

Key words: Protein, mitochondria, inner membrane, biologically active compounds, alkaloids, heart mitochondria, PbCl.

Oksidlovchi stress (OS) hujayralarda kislorodning faol shakllarini (reactive oxygen species – (ROS) haddan tashqari ko‘p shakllanishi bilan bog‘liq patofiziologik jarayon hisoblanadi [1]. ROSning ishlab chiqarilishining ortishi va hujayralarda to‘planishi antioksidant himoya tizimlari o‘rtasidagi nomutanosiblikni keltirib chiqaradi [2]. Hujayradagi erkin radikallarning asosiy manbai mitoxondriyalardir. Mitoxondriyada antioksidant himoya tizimi buzilganda ROS tufayli biomolekulalarning (DNK, oqsillar va lipidlar) shikastlanishi mitoxondriya disfunktsiyasi va membranalararo bo‘shliqdan pro-apoptotik oqsillarni chiqarishi mumkin. Natijada, mitoxondriya bo‘kishi ortadi, mPTP (*mitochondrial permeability transition pore*) orqali sitoxrom s oqsilining membranalararo bo‘shliqqa chiqishi yuz beradi. OS sharoitida mitoxondriya membranasi Sa²⁺ ionlari uchun o‘tkazuvchanligi ortishi kuzatiladi. Buning natijasida mitoxondriya ichki membranasi potentsiali kamayishi, bo‘kishining ortishi qayd etiladi.

OS bilan bog‘liq mitoxondrial disfunktsiyalarni biologik faol birikmalar yordamida korreksiyalash mumkin. Mana shunday biologik faol moddalardan biri izoxinolin alkaloidlar bo‘lib, hozirda *in vitro* va *in vivo* tajribalarda kalamush silliq muskul hujayralari ion transport tizimlariga va mitoxondriya membranasi o‘tkazuvchanligiga ta’siri katta qiziqish bilan tadqiq qilinmoqda. Ammo, F-24 va F-4 alkaloidlarining oksidativ stress sharoitida kalamush yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga ta’siri o‘rganilmagan. Shu nuqtai nazardan ushbu ishimizda oksidativ stress sharoitida kalamush yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga F-24 hamda F-4 izoxinolin alkaloidlarining ta’sirini o‘rganishni maqsad qilib olindi.

Tadqiqot usullari. Tajribalar zotsiz, oq vazni 180-200 g erkak kalamushlarda olib borildi. Tadqiqotlar *in vivo* sharoitlarda amalga oshirildi. Kalamushlarda oksidativ stress modelini chaqirish uchun PbCl₂ tuzidan foydalanildi. Tajriba uchun ajratilgan kalamushlar guruhlarga ajratildi: I guruh – nazorat (n=5), II guruh – tajriba (PbCl₂ orqali chaqirilgan OS, n=5), III guruh - tajriba (PbCl₂ orqali chaqirilgan OS +F-24, n=5) va IV guruh (PbCl₂ orqali chaqirilgan OS +F-4, n=5). II, III va IV guruhlarga sutkada bir marta PbCl₂ 10 mg/kg miqdorda peroral yo‘l orqali tajriba hayvonlari ozuqasiga qo‘shib 7 kun davomida berib borildi. Kalamushlarda OS hosil bo‘lgandan so‘ng III va IV guruhlarga sutkada bir marta 7 kun davomida mos ravishda ularga F-24 va F-4 izoxinolin alkaloidlarini 30 mg/kg miqdorda ozuqasiga qo‘shib berib borildi. Kalamush yurak mitoxondriyasi differensial sentrifugalash W.C.Schneider [3] usuli yordamida ajratib olindi. Mitoxondriyaning bo‘kish kinetikasini (0,3-0,4 mg/ml oqsil) mitoxondriya suspenziyasining 26°S da doimo aralashtirib turgan holda optik zichligini 540 nm da ochiq yacheykada (hajmi 3 ml) o‘zgarishi bo‘yicha spektrofotometrda (spectrophotometer V-5000) aniqlandi [4].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Hujayradagi erkin radikallar darajasi murakkab antioksidant mudofaa tizimlari tomonidan nazorat qilinadi. Oksidativ stress sharoitida mitoxondriya membranasi LPO natijasida uning o‘tkazuvchanlik xususiyati ham o‘zgarishi mumkin. Bunda, mitoxondriyaning bo‘kish jarayoni kuzatiladi va bu megakanal (mPTP) o‘tkazuvchanligining keskin ortishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holatda mitoxondriya bo‘kishini amalga oshishi tajribalarda ham o‘z tasdig‘ini topdi. OS bilan bog‘liq mitoxondriya

bo‘kishini turli biofaol moddalar bilan ingibirlash mumkin. Turli patologik sharoitlarda mitoxondriya bo‘kishini ingibirlovchi o‘simlik moddalari bo‘yicha ma’lumotlar uchraydi. Ammo, izoxinolin alkaloidlarini yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar uchramaganligi sababli quyidagi tajribalar olib borildi. Dastlab tajribamizda, $PbCl_2$ orqali chaqirilgan OS sharoitida kalamush yurak mitoxondriyasi bo‘kishiga F-24 va F-4 izoxinolin alkaloidlarining ta’siri o‘rganildi. Tajribada mitoxondriya bo‘kishini hosil qilish uchun induktor sifatida $CaCl_2$ ning 50 mkM konsentratsiyasidan foydalanildi. Inkubatsiya muhitida Sa^{2+} ionlari mavjud bo‘lmagan sharoitda mitoxondriya bo‘kishi kuzatilmaydi. Ammo, inkubatsiya muhitiga $CaCl_2$ ning 50 mkM konsentratsiyasi qo‘shilganda I guruh (sog‘lom) kalamushlarning yurak mitoxondriyasining bo‘kishi 0,123 $\Delta A_{540 \times 5}$ min. ni tashkil etdi. $PbCl_2$ bilan chaqirilgan oksidativ stressli II guruh kalamushlarning yurak mitoxondriyasini Ca^{2+} ionlari yordamida bo‘kishi 0,225 $\Delta A_{540 \times 5}$ min. ni tashkil etdi. Bu esa ularning nazoratga I guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 82,9% ga ortganligidan dalolat beradi.

Demak, $PbCl_2$ tuzini kalamushlarga 7 kun davomida 10 mg/kg miqdorda yuborilishi ularning yurak mitoxondriyasining bo‘kishini ortishiga olib kelgan. Mitoxondriyaning OS ta’sirida Ca^{2+} ionlari yordamida bo‘kishini ortishi mPTPning yuqori o‘tkazuvchan qiymati ortishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tajribalarni davom ettirib, OS chaqirilgan III guruh kalamushlarga F-24 izoxinolin alkaloididan 30 mg/kg miqdorda 7 kun berilishi ularning yurak mitoxondriyasining bo‘kishi 0,17 $\Delta A_{540 \times 5}$ min. optik zichlikni tashkil etib, II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 24,4% ga ingibirlanishiga olib keldi. OS chaqirilgan IV guruh kalamushlarni 7 kun davomida F-4 izoxinolin alkaloidi bilan terapiya qilinganda ularning yurak mitoxondriyasining bo‘kishi 0,14 $\Delta A_{540 \times 5}$ min. ni tashkil etdi. Bu esa ularning II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 39,1% ga ingibirlanishiga sabab bo‘ldi.

Demak, $PbCl_2$ bilan chaqirilgan OSda kalamush yurak mitoxondriyasining bo‘kishiga F-24 va F-4 izoxinolin alkaloidlari ingibirlovchi ta’sir etdi. Bunda, OS sharoitida yurak mitoxondriyasining bo‘kishiga F-4 izoxinolin alkaloidining ingibirlovchi ta’siri F-24 izoxinolin alkaloidiga nisbatan kuchli ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Kowalczyk P., Sulejczak D., Kleczkowska P., Bukowska-Oško I., Kucia M., Popiel M., Wietrak E., Kramkowski K., Wrzosek K., Kaczyńska K. Mitochondrial oxidative stress—a causative factor and therapeutic target in many diseases // Int J Mol Sci. – 2021. – V.22(24): – P. 1-18.
2. Wu J.Q., Kosten T.R., Zhang X.Y. Free radicals, antioxidant defense systems, and schizophrenia. *Prog. Neuropsychopharmacol. Biol. Psychiatry.* 2013;46: 200–206.
3. Schneider W.C., Hogeboom G.H. Cytochemical studies of mammalian tissues: the isolation of cell components by differential centrifugation // *Cancer. Res.* – 1951. – 11. – P. 1-22.
4. He L., Lemasters J.J. Heat shock suppresses the permeability transition in rat liver mitochondria // *J. Biol. Chem.* – 2003. – V. 278(19). – P. 16755-16760.